

**Guliston davlat pedagogika instituti,  
“Pedagogika” kafedrasi, p.f.f.d PhD,  
dotsent Samatova Dilrabo Yusufovna  
taqrizi ostida**

**Iroda Buronovna Buronova**  
Gulistan state pedagogical institute  
Uzbekistan  
Email: [irodaboronova10@gmail.com](mailto:irodaboronova10@gmail.com)

---

## **BO‘LAJAK TARBIYACHILAR FAOLIYATIDA MOBIL BOG‘CHALARНИ SAMARALI TASHKIL ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**ANNOTATSIYA:** Maktabgacha ta’lim jamiyatda bola shaxsining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta’lim tizimida mobil bog‘chalar innovatsion yondashuv sifatida rivojlanmoqda. Ushbu maqola mobil bog‘chalar faoliyatining ilmiy-pedagogik asoslarini tahlil qilish va uning ahamiyatini yoritishga va mobil maktabgacha ta’lim guruhlarida tarbiyachining faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** Mobil ta’lim tarixi, mobil guruhlar, zamonaviy ta’lim, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, rivojlanish, takomillashuv.

---

**KIRISH.** Mobil bog‘chalar an’anaviy maktabgacha ta’lim muassasalarining muqobili bo‘lib, ularning asosiy maqsadi geografik yoki ijtimoiy jihatdan cheklangan hududlarda bolalarga sifatli ta’lim va tarbiya berishdir. Shu o‘rinda mobil ta’limning kelib chiqishiga qaraydigan bo‘lsak 1950–1970-yillar ilk mobil ta’lim loyihalari asosan rivojlangan davlatlarda paydo bo‘lgan. Masalan, Buyuk Britaniya va AQShda qishloq joylardagi bolalarga xizmat ko‘rsatish uchun ilk marta mobil kutubxonalar va ta’lim avtobuslari yo‘lga qo‘ylган. 1960-yildan boshlab AQShda "Head Start" dasturi doirasida mobil maktabgacha ta’lim loyihalari ishlab chiqilgan. Shu yillarda mobaynida Avstraliyada "Bush Kindergarten" (tabiatda o‘tkaziladigan mobil bog‘cha) tushunchasi paydo bo‘lgan. 1980-2000-yillarda esa ayniqsa Hindiston, Bangladesh, Indoneziya va Afrika davlatlarida bolalar uchun moslashuvchan va harakatchan ta’lim shakllari ishlab chiqilgan. Bangladeshda suv havzalari bo‘ylab harakatlanadigan "Floating Schools" (suzuvchi mакtablar) tashkil etilgan. Hindistonda "Mobile Anganwadi" loyihalari joriy qilindi, bunda maxsus jihozlangan avtobuslar va furgonlar orqali maktabgacha ta’lim berilgan.

**MATERIAL VA USLUBLAR.** 2000-yillardan hozirgi paytgacha Janubiy Afrikada "Mobile Learning Units", Yangi Zelandiyada "Mobile Kindergarten" loyihasi rivojlantirilgan hamda AQSh, Kanada, Avstraliya, Yevropa davlatlari mobil maktabgacha ta’limni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitgan. Masalan, raqamli darslar va interaktiv o‘yinlar mobil bog‘chalarga joriy qilina boshlanganini ko‘rishimiz mumkin. Shu jumladan Vazirlar Mahkamasining "Mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida" 2019-yil 18-sentabrda 786-son qaroriga asosan: a) 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab, respublikaning tegishli viloyatlari 13 ta tumanlarida zamonaviy talablarga javob beradigan va qayta jihozlangan ISUZU NC 40 avtobuslar mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish tizimi (keyingi o‘rnarda — mobil guruhlar) tajriba-sinov tariqasida tashkil etilganligi;

b) o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalarida quyidagilar muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi:  
mobil guruhlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish imkonsiz bo‘lgan, olis va chekka aholi manzillarida joylashgan 44 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida tashkil etilib, ushbu hududlarga yaqin joylashgan 16 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga biriktirilganligi;

NATIAJALAR VA MUHOKAMALAR. 93 ta mobil guruuhlar tashkil etilib, jami 1 556 nafar maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalar maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinganligi va aynan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida mobil maktabgacha ta’lim guruhlari qamrovini kengaytirish bo‘yicha qabul qilingan chora tadbirlar mamlakatimizdagi barcha maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning sifatli ta’lim va tarbiya jarayonini samarali amalga oshirilishini yanada jadallashtirmoqda. Aynan hozirgi kunda ham Respublikamizning chekka hududlarida mobil maktabgacha ta’lim guruhlari tashkil etilmoqda. Mobil guruuhlar zamonaviy talablarga javob beradigan va qayta jihozlangan avtobuslar bazasida tashkil etilgan . Mobil guruhlarda ta’lim-tarbiyani tashkil etish uchun sanitariya normalari va qoidalari hamda gigiyena normativlariga muvofiq faqat fanlarni rivojlantiruvchi muhit va o‘yin faoliyatini tashkil etish maqsadida ajratilgan har bir hududlarda foydalaniladigan yer maydonlari ajratilgan. Mobil guruuhlar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tegishli tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limining buyrug‘iga assosan biriktirilgan bo‘ladi.

Mobil guruhlarda faoliyat ko‘rasatayotgan tarbiyachi, tarbiyachining yordamchisi va xaydovchisi biriktirilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbariga hisobot beradi. Mobil guruuhlar xodimlari mobil guruhlari biriktirilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining shtatida hisobda turadi. Mobil guruhlarga maktabgacha ta’lim tashkilotiga bormaydigan 3-7 yoshli bolalar qabul qilinadi. Mobil guruhlarga bolalar bo‘sh o‘rinlar mavjud bo‘lgan taqdirda, ota-onalarning (qonuniy vakilning) arizasi va bolaning salomatligi to‘g‘risidagi tibbiy ma’lumotnomha, otaonalarning (qonuniy vakilning) fuqarolik pasporti nusxasi, bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi, bolaning 2 dona fotosuratilari asosida qabul qilinadi. Bolalar mobil guruhlarga biriktirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining buyrug‘i asosida qabul qilinadi. Bolalarni bir guruhdan ikkinchi guruhga o‘quv yili davomida ota-onalarning (qonuniy vakilning) arizasi asosida bo‘sh o‘rin bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladi. Mobil guruhlarda davlat maktabgacha ta’lim xizmatlari bepul ko‘rsatiladi. Mobil guruhlarga ta’lim va tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida tashkil etiladi va ovqatlantirishni majburiy tashkil etmagan holda, har bir guruhda bir haftada 7,5-9 soatdan (bir kunda 3-4 soat) kam bo‘lmagan ta’lim berish nazarda tutiladi. Mobil guruuhlar ta’lim faoliyati 2 smenada, bir haftada 6 kun ish faoliyat olib boradi. Mobil guruhlarda o‘quv yili 2 sentyabrdan boshlanib 31 mayda yakunlanadi, yozgi sog‘lomlashtirish davri 1 iyundan 31 avgustga qadar hisoblanadi. Xorij tajribasi asosida tashkil etilgan mobil maktabgacha ta’lim guruhlari bolalarni tarbiyalash bo‘lajak tarbiyachilardan bir qancha kasbiy va shaxsiy sifatlarning mavjud bo‘lishini talab qiladi. Biz bilamizki mobil maktabgacha ta’lim guruhlari maxsus avtobuslarda tashkil etilgan bo‘lib unda 16tadan 30tagacha bolalar ta’lim va tarbiya olishi mumkin va undagi ta’lim va tarbiya jarayoni ham bir kunda 3 soatdan oshmasligi belgilab qo‘yilgan. Odatdagagi tashkil etilgan (ko‘chmas) davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning bo‘lish vaqt eng kamida 9,5 soatni tashkil etadi hamda bunda bolalarning sog‘lom, barkamol, aqlan yetuk, ijodkor shaxs bo‘lib shakllanishi va maktab ta’limiga sifatli tayyorlanishi uchun tarbiyachi bilan birgalikda Maktabgacha ta’lim hamshirasi, musiqa mashg‘uloti o‘qituvchisi, ikkinchi til mashg‘uloti o‘qituvchisi, jismoniy tarbiya mashg‘uloti o‘qituvchisi, mental arifmetika mashg‘uloti o‘qituvchisi va bundan tashqari bir qancha qo‘srimcha to‘garaklar rahbarlarining tashkil etgan ta’lim va tarbiya jarayoni tizimida bolalar samarali rivojlanib, ijtimoiylashib borish imkoniga yuqori darajada ega bo‘ladilar. Ammo mobil guruhlardagi bolalar ta’lim va tarbiya jarayoni esa faqatgina tarbiyachi, tarbiyachi yordamchisi orqali amalga oshiriladi. Mobil maktabgacha ta’lim guruhlari bolalarni zamonaviy talablarga mos sifatli ta’lim va tarbiya bilan ta’minalashda bo‘lajak tarbiyachilarni mobil guruhlardagi faoliyatini samarali tashkil etishga va uni takomillashtirishga o‘rgatilishi mobil matabgacha ta’lim guruhlarining samarali tashkil etilishini ta’minalaydi. Mobil guruhlarda tarbiyachining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari muvofiq maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning har

tomonlama yetuk, intellektual, ma’naviy-estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash va ularni boshlang‘ich ta’limga tayyorlash;

bolalarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish va mustahkamlash;

bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;

bola shaxsining asoslarini shakllantirish, uning bilim orttirishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiyaning samarali shakllari va uslublarini joriy etish;

ota-onalarga bolalarning ilk rivojlanishi va ularga ta’lim-tarbiya berish masalasida maslahat va uslubiy yordam ko‘rsatish.

XULOSA:Mobil guruhlarda tegishli kasbiy ma’lumotga, tayyorgarlikka, yuksak axloqiy va ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lib hafta mobaynida bolalar bilan kamida 9 soat davomida ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishi va yuqoridagi vazifalarni xal eta olishi kerak bo‘ladi. Buning uchun mobil guruhlarda faoliyat olib boruvchi bo‘lajak tarbiyachilar bir qancha kasbiy malakalarni o‘zlashtirishi zarur hisoblanadi va ular bolani yosh xususiyatlariga qarab yondashishi, jismoniy chiniqtira olishi, nutq, muloqot va yozish malakalarini, ijodkorligini, bilish jarayonini rivojlantira olishi, estetik yondasha olishi, ikkinchi til, mental arifmetika va shunga o‘xshash ko‘nikmalarini rivojlantira olishi hamda bolalarga ta’lim va tarbiya berish bilan birlgilikda ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ishlab bola tarbiyash san’ati bo‘yicha maslahatlar ham bera olishi lozimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida” 2019-yil 18-sentabrdagi 786-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2024 yildagi PF-152-son
3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi.
4. “Mobil guruhlar faoliyatini tashkil etish” Beknazarov Moxira Ergashevna Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 4 (100), часть 1 ноябрь, 2022 г.